

## **O‘ZBEKISTONDA ENG BIRINCHI BALETMEYSTER**

**Baxram Abipov Dosnazarovich**

*O‘zbekiston Davlat San’at va Madaniyat instituti Nukus filiali 3-bosqish talabasi*

**Almasova Jansaya Jayiq qizi**

*O‘zbekiston Davlat San’at va Madaniyat instituti Nukus filiali 3-bosqish talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistondagi eng birinchi baletmeyster haqida va raqs san'ati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqs, san'at, baletmeyster, teatr.

Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri janubiy-sharqiy Osiyodagi eng katta teatr hisoblanadi. Uning tarixi «Konser- etnografik ansambl asoschisi Muhiddin Qori Yoqibov hamda nafaqat o‘zbek, qolaversa jahon xalq terma folklor qo'shiqlari mohir ijrochisi 2- darajali Stalin mukofoti sovrindori Tamaraxonimlar bilan bog'liqdir. Mazkur ansambl 1929- yil M. Qoriyoqubov va Tamaraxonim sa'y – harakati bilan «O'zbek davlat musiqali teatri» ga aylantirilgan. Teatrda « Halima», « Farhod va Shirin » spektakllari xalq cholg'ulari jo'rligida ijro etilgan. Keyinchalik 1930- yillarga kelib esa « Ichkarida», «Layli va Majnun», «Po'rtana» spektakllarida xalq cholg'ulariga simfonik orkest sozlari qo'shilip, professional o‘zbek operasining vujudga kelishiga zamin yaratdi. 1937 – 1938-yillarda Qozoqistonlik kompozitor Ye. Bruslovskiyning « Er Tag'in» hamda Ozarbayjonlik kompozitor M. Magomayevning « Nargiz » operalarining sahnalashtirilishi esa teatr truppasining opera san'atini o'zlashtirilishida muhim rol o'ynadi.

1939- yil 11- iyun sanasida kompozitorlar S. Vasilenko va M. Ashrafiy musiqasi hamda K. Yashin librettosi asosida birinchi o‘zbek operasi « Bo'ron » spektaklli sahna yuzini ko'rди. Teatr jamoasi «Bo'ron » o'pera spektaklida erishgan yutuqlarini kompozitorlar R. Glier va T. Sodiqovlarning hamkorlikdagi ijod mahsuli «Layli va Majnun» o'perasi bilan yanada mustahkamladi. 1941- yil ulug' «Farg'ona kanali» kanali xalq tomonidan hashar yo'li orqali qurilishi munosabati bilan Farg'ona kanali quruvchilariga bag'ishlangan kompozitorlar S. Vasilenko va M. Ashrafiy hamkorligida « Ulug' kanal » operasi sahnalashtirildi. Bundan tashqari A. Kozlovsckiyning «Ulug'bek», O. Chishkoning «Mahmud Tarobiy » operalari urush yillarida yaratiladi. Teatr truppasi ijodkorlari o'pera bilan bir qatorda o‘zbek baletini ham shakllantirishga urunadilar. 1933- yilda kompozitor N. Roslavets musiqasi asosida «Paxta» baleti sahnalashtiriladi, ammo ushbu balet spektaklli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ko'pgina izlanishlardan so'ng 1939- yilda kompozitor F. Tal musiqasi sahnalashtiruvchi baletmeysterlar A. Tomskiy , M.

Turg'unboyeva va Usta Olim Komilovlarning hamkorligida «Shoxida» balet spektaklli teatr truppasi ijodkorlariga dastlabki , ilk muvaffaqiyatni olib keldi . Keyinchalik Ye. Bruslovskiyning Gulandom», S. Vasilenkoning «Oq bilak » milliy balet spektakllari sahna yuzini ko'rdi . Jahan mumtoz repertuarlaridan J. Bize ning «Karmen» , Chaykovskiyning Qarg'a motkasi » kabi operalari bilan bir qatorda B. Asafevning «Bog'cha saroy favvorasi » , L. Delib ning «Koppeliya» baletlari sahnalashtiriladi. Teatr yruppasining o'z binosi mavjud emas edi. Avvallari barcha tomoshalar «Kolizey» sirk binosida o'tkazilar, biroq «Kolizey» ning sahnasi akustikasi opera va balet tomoshasi talablari uchun to'g'ri kelmas edi. Teatr jamoasi , tomoshabinlar soni, repertuarning boyib borishi truppaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi. Teatr truppasi uchun maxsus tegishli inshootni barpo etish maqsadida davlat miqyosida tanlov e'lon qilindi . Aleksey Shusyey binoning pardozlash ishlariga g'ayrat bilan kirishadi. Me'morning g'oyasi bo'yicha olti foyening har biri o'ziga xos noyob uslubga ega bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari suradi. Bunga sabab esa Toshkent , Buxoro, Xorazm , Samarcand , Farg'ona va Termiz shaharlari bir vaqtlar o'z me'morchilik an'analariga ega tarqoq hudud bo'lganliklarini alohida – alohida ko'rsatib berish kerakligida deb hisoblaydi. Pardozlash va bezak betish ishlariga mahalliy xalq hunarmandlari , rassomlar jalb etiladi. Ularga Buxorolik usta akademik Shirin Murodov boshchilik qiladi . Bino tarzi va interyerini bezashda milliy me'morchilik an'analaridan foydalilanilgan . Bezaklarida Buxoro me'morchilik maktabining ganchkori bezaklari ; toshkentlik ustalarning namoyon va ravoqlari , guldasta bezaklari; xivalik ustalarning ganchkori , marmar , naqsh , yog'och o'ymakorligidagi o'ziga xos uslublari ; samarqandlik ustalarning bo'rtma , muqarnasli jozibador lavhalari ; termizlik ustalarning unutilib ketgan mayda davra va jingalak tas'virli o'ymasi yangidan jonlantirilgan . Ushbu ijod mahsullari bilan Aleksey Shusev teatr bezagi ishlaridagi o'z g'oyasining mukammal aksini to'laqonli ko'ra olgan. Bundan tashqari devorlarda Ch. Ahmarovning Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniaturyalari aks ettirilgan . Bino tarzilari peshayvon shaklida ravoqlar oldi qismida 3 , ikki yon tomonlaridagi ravoqlar 9 ta qatordan iborat . Foye , tomosha zali , sahna va boshqa tomosha uchun mo'ljallangan yana 3 ta qavatdan joylashgan . Binoning ta'mirlash ishlari bitgandan so'ng rassom hunarmand , ustalar 1948- yilda teatr binosi qurilishida mehnat qilgan barcha xalq hunarmand ustalari rassomla davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar.

Raqsni inson yaratadi, o'zining hayotiy ehtiyoji uchun yaratadi, o'zining ko'tarilgan kayfiyati boshqalarga ham ta'sir qilishi uchun yaratadi. Ammo oddiy xalq ichidan chiqqan, butun hayotini shu sohaga bag'ishlagan, xalq raqslarini qaytadan ishlab, sayqal berib, yanada ko'r kamblashtirib, san'at darajasigacha yetkazuvchi, san'atni butun dunyoga tanituvchi, uni rivojlantiruvchi, yanada boyituvchi raqs san'ati

ustalari bo‘lib, ular -Baletmeysterlar deb ataladi. «Baletmeyster» so‘zi - «Balet ustasi» degan ma’noni anglatadi. «Baletmeyster» baletda va raqsning boshqa har xil janrida ijod qiladi. Baletmeysterlik faoliyati to‘rtta turga bo‘linadi:

1. Baletmeyster - yaratuvchi;
2. Baletmeyster - sahnalashtiruvchi;
3. Baletmeyster - repetitor(mashq qildiruvchi);
4. Baletmeyster - pedagog.

Baletmeyster - yaratuvchi xoreografik asar yaratadi. Uni boshqa san’at turlarini yaratuvchi ijodkorlar ya’ni shoir, kompozitor, bastakor, rejissyor, rassom, yozuvchi, haykaltaroshlarga tenglashtirish mumkin. Faqatgina ulardan farqli tomoni shundaki, baletmeyster -yaratuvchi xoreografik obrazlar yaratadi. O ‘z tasawurlarini imo-ishora, raqs harakatalari, kiyim va taqinchoqlari orqali ifodalaydi. Tabiatdagi jamiki ongli va ongsiz mavjudotlar baletmeyster-yaratuvchining tasavvuriga qarab xoreografik obraz bo‘la oladi. Masalan: Sevishganlar, yovuz kishilar, hayvonot dunyosi, majnuntol, zilol buloq, kapalak, qushlar, gullar va hokazo. Bundan tashqari baletmeyster - yaratuvchi xoreografik asar yaratishi uchun hayotni chuqur va teran fikrlovchi, sinchkov, ziyrak, faylasuf va ruhshunos, nozik qalb egasi bo‘lishi zarur. U raqsning matnini o‘ylab topadi va amaliy qismiga ya’ni sahnalashtirishga ham ma’sul bo‘ladi. Chunki u o‘sha raqsning muallifi hisoblanadi. Baletmeyster-sahnalashtiruvchi baletmeyster-yaratuvchi yaratgan xoreografik asami ijrochilarga sahnalashtiradi, o‘rgatadi, agar ijrochi bu harakatlami tezda o‘zlashtira olmasa qayta-qayta ko‘rsatib, tushuntirib berishi lozim. Baletmeyster - yaratuvchi bu asar orqali nimani ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan bo‘lsa, baletmeyster-sahnalashtimvchi o‘z ish jarayonida buni to‘liq his qilgan holda, ijrochilarda to‘la-to‘kis namoyon etib berishi lozim. Baletmeyster-sahnalashtiruvchi eng awalo, raqsni yozishni bilishi muhim. Buning uchun sahnaning tuzilishi va shartli belgilarini o‘zlashtirishi lozim. Raqsni yozganda tomoshabin tomonidan turib (ijrochining yuzi sahnanning oldiga qaragan holda) yozilsa, sahnalashtiruvchiga raqsni tahlil qilishga, butun raqsning chizmasini ko‘rib turishga hamda sahna maydonidagi raqqos va raqqosalaming ijrolarini nazorat qilishga qulay imkon yaratiladi. Sahnalashtiruvchi ijrochilarga sahnaning tuzilishini ham o‘rgatishi kerak. Baletmeysterlar raqsni sahnalashtirishda turli hil chizmalardan foydalanishi mumkin. baletmeyster-yaratuvchi yaratgan xoreografik asami ijrochilarga sahnalashtiradi, o‘rgatadi, agar ijrochi bu harakatlami tezda o‘zlashtira olmasa qayta-qayta ko‘rsatib, tushuntirib berishi lozim. Baletmeyster - yaratuvchi bu asar orqali nimani ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan bo‘lsa, baletmeyster-sahnalashtimvchi o‘z ish jarayonida buni to‘liq his qilgan holda, ijrochilarda to‘la-to‘kis namoyon etib berishi lozim. Baletmeyster-sahnalashtiruvchi eng awalo, raqsni yozishni bilishi muhim. Buning uchun sahnanning tuzilishi va shartli belgilarini o‘zlashtirishi lozim. Raqsni yozganda tomoshabin tomonidan turib (ijrochining yuzi sahnanning oldiga qaragan holda) yozilsa,

sahnalashtiruvchiga raqsni tahlil qilishga, butun raqsning chizmasini ko‘rib turishga hamda sahna maydonidagi raqqos va raqqosalaming ijrolarini nazorat qilishga qulay imkon yaratiladi. Sahnalashtiruvchi ijrochilarga sahnaning tuzilishini ham o‘rgatishi kerak. Baletmeysterlar raqsni sahnalashtirishda turli hil chizmalardan foydalanishi mumkin. Raqsning qanchalik qiziqarli chiqishi baletmeysteming fantaziyasiga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O‘zbekiston», 2010.
2. I.A.Karimov. «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch». T., 2008.
3. M.Abdullayeva. Aktyorlik mahorati asoslari. T., 2013.